

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

PHILOSOPHICAL AND HISTORICAL FOUNDATIONS OF PATRIOTIC IDEAS IN THE WORLDVIEW OF ZAHIRIDDIN BABUR

Khamdamov Behzod

Lecturer at Bukhara State Medical Institute

Abstract. This article provides a philosophical and historical analysis of the formation and development of patriotic ideas in the worldview of Zahiriddin Babur. The study explores the influence of Timurid statehood traditions, Eastern spirituality, Sufi thought, and humanistic concepts on the shaping of his perspectives. The Baburnama and Babur's lyrical works reveal the essence and conceptual foundations of such notions as devotion to homeland, justice, loyalty, and civic responsibility. The article also examines how Babur's personal life experiences, political activity, and inner spiritual struggles function as ontological factors in the formation of his patriotic worldview. The contemporary theoretical significance of Babur's concept of patriotism for modern educational and spiritual development is substantiated.

Keywords: patriotism; philosophical-historical analysis; Eastern spirituality; Sufism; Timurid traditions; humanism; Baburnama; civic responsibility; spiritual heritage.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI

Xamdamov Behzod

Buxoro davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoqarashida vatanparvarlik g'oyalarining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda temuriylar davridagi davlatchilik an'analari, Sharq ma'rifati, tasavvufiy ruhiyat va insonparvarlik konsepsiyalarining Bobur tafakkuriga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. "Boburnoma" hamda Boburning lirik merosida vatanga munosabat, adolat, sadoqat, fuqarolik mas'uliyati kabi g'oyalarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Maqolada Boburning shaxsiy hayot tajribasi, siyosiy faoliyati va ruhiy iztiroblari vatanparvarlik qarashlari shakllanishida qanday ontologik omil sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatiladi. Shuningdek, Bobur vatanparvarlik konsepsiyasining zamonaviy ma'naviy-tarbiyaviy jarayonlar uchun nazariy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik; falsafiy-tarixiy tahlil; Sharq ma'naviyati; tasavvuf; temuriylar an'anasi; insonparvarlik; "Boburnoma"; fuqarolik mas'uliyati; ma'naviy meros.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N26>

Kirish. Zahiriddin Muhammad Boburning falsafasi, xususan uning vatanparvarlikka oid qarashlari, bugungi zamonaviy ma'naviy hayotning markaziy yo'nalishlaridan biri — milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash bilan uzviy bog'liqdir. Uning asarlaridagi vatanparvarlik g'oyasi — inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi ma'naviy munosabatlarni uyg'unlashtiruvchi falsafiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Mutafakkirning "Boburnoma" asari tahlil qilinganda, uning har bir sahifasida vatanga nisbatan chuqur muhabbat, milliy taqdir uchun ichki iztirob va ma'naviy mas'uliyat tuyg'usi yuksak badiiy va falsafiy ifoda topganini ko'rish mumkin. Asarda Boburning shaxsiy kechinmalari, siyosiy-ijtimoiy voqealar va tarixiy holatlar orqali yurtga sadoqat, el-yurti uchun

mushtarak dard-u tashvishlar teran aks ettiriladi. Farg'onadan to Hindistongacha bo'lgan uning uzoq va o'ta murakkab tarixiy safarlari davomida mutafakkir jismonan vatandan ajrab yashagan bo'lsa-da, ma'nan va ruhan uning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Uning qalbidagi vatanparvarlik hissi nafaqat siyosiy yoki harbiy, balki falsafiy va ma'naviy qadriyat sifatida shakllangan. Shu jihatdan Bobur falsafasida vatanparvarlik – inson va davlat munosabatlarining ma'naviy asosidir.

Adabiyotlar tahlili. Zahiriddin Bobur merosi haqidagi ilmiy tadqiqotlar ko'p qirrali bo'lib, uning shaxsiyati, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, badiiy ijodi va tarixiy manbashunoslikdagi o'rni keng yoritilgan. Ammo Bobur dunyoqarashidagi vatanparvarlik g'oyalarini falsafiy-tarixiy jihatdan yaxlit bir tizim sifatida tadqiq etish haligacha yetarlicha chuqurlikda amalga oshirilmagan. Mavjud adabiyotlarning tahlili ushbu mavzuning murakkab va sinkretik tabiatga ega ekanini ko'rsatadi.

Temuriylar davlatchilik maktabini o'rgangan tadqiqotchilar B. Akromov, Sh. Vohidov va boshqalar bu davrdagi siyosiy-huquqiy madaniyat shaxsning Vatanga munosabatini shakllantirishda muhim rol o'ynaganini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, Boburning davlat boshqaruvi tajribasi, uning adolat va insofni yuksak qadrlashi ana shu an'analarning amaliy davomi sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat Bobur shaxsiyatidagi vatanparvarlik g'oyalarining mohiyatini tushunish uchun muhim asos yaratadi. "Boburnoma"ni o'rgangan xorijlik olimlar A. Beveridj, E. Denison Ross, S. Deyl boshqalar Boburning tarixiy kuzatishlari, ruhiy kechinmalari va shaxsiy tajribasi uning dunyoqarashini beqiyos boyitganini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarda Boburdagi vatan sog'inchi, yurtidan ayrilik azobi, Vatanga sadoqatning ontologik mazmuni badiiy-tarixiy dalillar asosida talqin qilinadi.

Boburning lirik merosi, ayniqsa g'azallari, vatanparvarlik ruhiyatini nechog'li chuqur va obrazli tarzda ifoda etganini ko'rsatadi. Z.Pirmuhamedov va S.Rahmatullayev kabi tadqiqotchilarning fikricha, Boburning poetik olamidagi vatan haqidagi iztirob, muhabbat va sadoqat motivlari tasavvufiy ma'rifati bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Bu talqinlar Boburdagi vatanparvarlik faqat siyosiy tushuncha emas, balki ruhiy-ma'naviy holat sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Mavjud adabiyotlarning tahlili shuni anglatadiki, Bobur dunyoqarashidagi vatanparvarlik g'oyalari bir vaqtning o'zida tarixiy, falsafiy, ma'naviy va badiiy omillar uyg'unligidan kelib chiqqan sinkretik tizimdir. Ilmiy manbalarda ushbu jihatlar alohida tadqiq qilingan bo'lsada, ularni bir-biriga bog'langan falsafiy-ontologik asos sifatida o'rganish yangi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish hisoblanadi.

Metod va metodologiya. Maqolada analiz va sintez, dialektik, sinergetik, germeneytik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. Bobur falsafasi insonni faqat ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki ma'naviy mas'uliyat egasi sifatida ko'radi. Uning "Boburnoma" asaridagi vatanga sadoqat, xalqqa muhabbat va adolatli boshqaruv g'oyalari bugungi "Yangi O'zbekiston – uchinchi Renessans sari" g'oyasi bilan ma'naviy jihatdan hamohangdir. Chunki har ikki tizimda ham inson omili, milliy g'urur va ma'naviy javobgarlik davlat taraqqiyotining asosiy mezon sifatida belgilanadi.

Boburning vatanparvarlik falsafasi bugungi zamon falsafiy paradigmalarida — milliy g'oya, mafkuraviy barqarorlik, ma'naviy xavfsizlik, fuqarolik mas'uliyati kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'langan. Uning fikricha, millatning kuch-qudrati uning ma'naviy birligida

namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, Boburning vatan haqidagi g'oyalari zamonaviy davlat falsafasi va ma'naviyat siyosatida qo'llanilayotgan "Fuqarolik jamiyati", "Vatanga sadoqat", "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" kabi konsepsiyalar bilan metodologik uyg'unlikka ega.

Mutafakkirning vatanga nisbatan cheksiz muhabbati uning shaxsiy hayoti va taqdirida ham maxsus falsafiy-majoziy mazmun kasb etadi. U yurtidan uzoqda yashagan davrlarida ham o'zini Farg'ona madaniy-ma'naviy manzarasining ajralmas qismi sifatida anglaydi. Bu esa, insonning "ma'naviy Vatani" haqidagi falsafiy konsepsiyaga to'la muvofiq keladi, ya'ni Vatan faqat geografik hudud emas, balki shaxsning ruhiy-axloqiy olamidagi ildiz, ma'naviy mehr-mamlakat sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy gumanitar fanlarda, xususan falsafa, madaniyatshunoslik va siyosatshunoslik sohalarida "vatanparvarlik" tushunchasi globallashuv davrida yangi bir ma'no kasb etmoqda. Bu jarayonda Bobur falsafasi milliy qadriyatlarning universallashtiruvchi va umuminsoniylashuvchi uchun muhim nazariy asos sifatida namoyon bo'ladi. Uning g'oyalarida Vatanga muhabbat — nafaqat milliy, balki umumbashariy fazilat sifatida ifoda etilgan. Sharq falsafasida "vatan" tushunchasi moddiy hududdan ko'ra, ma'naviy-majoziy mohiyat kasb etgan. U insonning axloqiy kamoloti, vijdoni va ma'naviy tayanchi bilan uzviy bog'liqdir. Bu an'ana islomiy tasavvuf, axloqshunoslik va siyosatshunoslik maktablari orqali shakllangan. Zahiriddin Muhammad Boburning falsafiy merosida vatanparvarlik g'oyasi faqatgina siyosiy yoki tarixiy voqealar bilan cheklanib qolmay, balki inson ruhiyatining chuqur ichki kechinmalari va ma'naviy o'zligining asosiy mezon sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bobur falsafasini chuqur anglash uchun uning vatanga munosabatini Abu Nasr Forobiy, Imom G'azzoliy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar merosi bilan qiyosiy tahlil etish zarur. Bu qiyosiy yondashuv nafaqat umumiy ilmiy g'oyalarni ochadi, balki har bir mutafakkirning axloq, muhabbat va mas'uliyat to'g'risidagi falsafiy qarashlarini yangi ilmiy nuqtai nazardan yoritadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur uchun Vatan – moddiy joy emas, balki ma'naviy borliq holatidir. Uning "Boburnoma"sidagi she'riy va nasriy iqtiboslardan anglashiladiki, u yurtidan ayrilqni jismoniy azob emas, ruhiy qiynoq sifatida qabul qiladi. Shuningdek, Boburning falsafiy qarashlarida vatanparvarlik axloqiy burch sifatida namoyon bo'ladi. Uningcha, adolatli podshoh bo'lish uchun, avvalo, vatanga muhabbat va xalq taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usi zarur. Ramesh Lal (Ramesh Lal) ta'kidlaydiki, Bobur vatanni nafaqat siyosiy hudud, balki inson vijdonining guvohi sifatida talqin etadi [1].

Abu Nasr Forobiyning "Fozil shahar ahli" asarida vatan tushunchasi axloqiy-falsafiy jamoa va fozil jamiyat bilan bog'langan. Uningcha, insonning baxti — fozil jamiyatda, ya'ni odil davlat va ma'naviy birlikka ega vatanda bo'lishi mumkin [11]. Farobiyda "vatanparvarlik" — insoniyatning umumiy maqsadi bo'lgan "saodat"ga erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U jismoniy hudud emas, balki inson kamolotining ijtimoiy muhitidir. Har ikki mutafakkir qarashlarida vatan ma'naviy kamolot bilan bog'langan. Biroq, Farobiy vatanni ideal jamiyat sifatida talqin etgan bo'lsa, Bobur uni ruhiy muhabbat va axloqiy mas'uliyat nuqtai nazaridan talqin qilgan.

Imom G'azzoliy "Ihyo ulumid-din" asarida muhabbat va ixlosni Alloh yaratgan borliqqa muhabbat bilan bog'laydi. Uningcha, Vatanni sevish — Yaratganni sevishning amaliy ko'rinishidir. G'azzoliy fikricha, insonning vatanga muhabbati uning ma'naviy poklanishiga

xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, har ikkala mutafakkir qarashlarida vatanparvarlik axloqiy va ma'naviy his sifatida talqin etilgan. Biroq, G'azzoliyda u ilohiy muhabbatning ifodasi, Boburda esa, vijdon va mas'uliyat timsoli sifatida tadqiq qilingan.

Hazrat Navoiy "Mehr va muhabbat" konsepsiyasida vatanga muhabbatni insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari bilan bog'laydi. Uningcha, vatanni sevmok — insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qilishdir. Mutafakkir "Xamsa" asarida davlatchilik va odillikni vatanparvarlikning asosi deb bilib, shunday yozadi: "El ichida mehr qilmoq vatanni sevmokdir" [10]. Hazrat Navoiy va Bobur Mirzo qarashlaridagi umumiylik shundan iboratki, ular vatan muhabbatini inson vijdoni va ma'naviyati bilan bog'liq holda tadqiq qilganlar. Biroq, Navoiyda vatanparvarlik ijtimoiy birlik va ma'rifat bilan, Boburda shaxsiy ruhiy izzitirob va siyosiy mas'uliyat bilan o'zaro aloqadorlikda bog'langan. Jomiyning "Nafahot ul-uns" va "Bahoriston" asarlarida vatan muhabbati sufiiy ma'rifatining tarkibiy qismi sifatida ifodalangan. Uningcha, vatan — insonning "asli"ga qaytish ramzi, ya'ni ilohiy vatandir [8]. Mutafakkirlarning har ikkisida ham vatan ma'naviy maskan sifatida talqin etilgan. Shu bilan birga, Jomiyda vatan — transsendental, ilohiy manbaga qaytish ramzi, Boburda yurtning sog'inish va ma'naviy mas'uliyat ramzi sifatida tadqiq etilgan.

Farobiy, G'azzoliy, Navoiy va Jomiyda vatan muhabbati jamiyat, ma'naviyat va ilohiy muhabbat bilan bog'langan bo'lsa, Boburda u shaxsiy ruhiy izzitirob va axloqiy mas'uliyat bilan singib ketgan. Boburning vatanparvarlik falsafasi Sharq mutafakkirlari an'anasini davom ettiradi, ammo uning asosiy yangiligi — ruhiy-axloqiy ichki kechinma orqali vatan muhabbatini falsafiy darajaga olib chiqishidir. U vatanni moddiy hudud emas, balki inson vijdoni va ma'naviy borlig'i sifatida talqin etib, vatanparvarlikni shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat birligi sifatida qo'yadi.

Ta'kidlash joizki, Zahiriddin Muhammad Boburning falsafasi — bu nafaqat davlatchilik yoki adabiy meros, shu bilan birga insonning ruhiy va ma'naviy dunyosini ifoda etuvchi falsafiy tafakkur tizimidir. Uning ijodidagi eng ta'sirli yetakchi mazmun — Vatan sog'inchi, ya'ni yurtdan ayrilik tuyg'usining ma'naviy qiymati va falsafiy ma'nosi hisoblanadi.

Zahiriddin, bu qanday savdo,
Qora hijrat sari yuz tutmoq?
Yuragingni etar-ku ado,
Tirik turib, Vatandan ketmoq...[5]

Ontologik nuqtai nazarga ko'ra, Bobur uchun "Vatan" bu nafaqat geografik makon yoki siyosiy hudud, balki borliqning ma'naviy markazi, insonning ichki ongi va ruhiy ildizi hamdir. "Qora hijrat" iborasi shundan dalolat beradiki, u nafaqat jismoniy ko'chishni, balki borliqdan uzilish, insonning o'z mohiyatidan ajralib qolish holatini anglatadi. Shu jihatdan, Bobur falsafasida Vatan — ontologik hozirlik va ruhiy muqaddas makon sifatida namoyon bo'ladi. Bu to'rtlikda "Tirik turib, Vatandan ketmoq" — bu ekzistensial o'lim ramzidir. Inson jisman tirik, ammo ma'naviy jihatdan yo'qqa aylanadi.

Aksiologik talqinga ko'ra, mutafakkirning fikricha, Vatan insonning axloqiy va vijdoniy qadriyatidir. Asarda uning vatanparvarlik g'oyalari hissiy muhabbat tarzida emas, balki axloqiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois Mirzo Bobur ta'limotida Vatan inson vijdonini o'lchovchi axloqiy kategoriya va uning ruhiy adolatini ifoda etuvchi asosiy me'yor sifatida talqin qilinadi. Bu jihatdan Bobur Navoiy an'anasidagi axloqiy vatanparvarlik maktabining

davomchisidir, chunki u Vatanga muhabbatni amaliy faoliyat va ma'naviy mas'uliyat bilan uyg'unlashtiradi. Vatanni sevish Bobur uchun nafaqat tuyg'u, balki axloqiy burchdir.

Ekzistensial talqinga ko'ra, bu to'rtlikdagi hissiy kuch Boburning ichki dunyosidagi ijtimoiy fojia va ruhiy parokandalikni ifoda etadi. "Qora hijrat" insonning o'zligi bilan ziddiyatga tushish holatini namoyon etadi. To'rtlikdagi "yuragangni yetar-ku ado" degan so'zlari ruhiy yechimsizlikni, vijdon azobini anglatadi. Bu holat falsafada ekzistensial qiyinchilik, ya'ni "borliqda o'z o'rnini yo'qotish" holati deb ta'riflanadi. Boburning ruhiy iztirobi uning insoniy mohiyatining tirikligi belgisidir. Ushbu ma'noda, ijod vijdonning ovozidir.

Bobur falsafasida Vatan tushunchasi ontologik asosga, axloqiy mazmunga va ekzistensial ruhiylikka ega murakkab ma'naviy kategoriyadir. Uning "Tirik turib, Vatandan ketmoq" degan falsafiy so'zlari nafaqat tarixiy hijratni, balki inson va Vatan o'rtasidagi abadiy ma'naviy rishtani o'zida namoyon etadi. Ramesh Lal ta'kidlaganidek, "Bobur uchun yurt — ruhiy ildizdir, uni yo'qotish — inson mohiyatining bir qismini yo'qotish bilan barobar" [7].

Bobur ijodida sufiyona ta'sir kuchli bo'lganligi sezish qiyin emas. Mutafakkir sog'inchi jismoniy yurtga nisbatan emas, balki "ilohiy vatan"ga intilish ramzi sifatida ham namoyon bo'ladi. Mazkur jihat uni Abdurahmon Jomiy va Imom G'azzoliylar bilan yaqinlashtiradi. Jomiyning "Bahoriston" asarida shunday fikr bor: "Sening haqiqiy vataning — Allohga yaqinlik maskanidir; dunyo faqat muvaqqat mehmonxona". Bobur ijodida ham xuddi shu ma'no ko'zga tashlanadi. Boburda Vatan sog'inchi Boburiylar davlati yoki Samarqand haqidagi orzu bilan cheklanmaydi, u insonning ruhiy poklanish yo'lidagi ma'naviy chaqirig'i sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, Bobur falsafasi sufiy paradigma bilan uyg'un, ya'ni moddiy vatanni sog'inish orqali u ma'naviy vatanga, ya'ni ruhiy birlik holatiga intiladi.

Bobur falsafasida "Vatan" tushunchasi faqat geografik hudud emas, balki insonning ma'naviy aydiniyligi va vijdoni bilan bog'liq ildiz sifatida talqin etiladi. Mutafakkirning ushbu satrlarida bu hissiyot falsafiy darajaga ko'tarilgan: "Yurtdin ayrilg'on dilda doim bir alam bo'lur. Farg'onani eslasam, ko'nglimda shodlik va huzn birla aralash hol paydo bo'lur" [3]. Bobur Vatanni "jon manzili" deb ataydi. Bu ifoda tasavvufiy ma'noda insonning ruhiy maskani, ma'naviy manbai degan ma'noni anglatadi. Uning fikricha, Vatan insonning ichki olamini belgilaydi, axloqiy ildiz vazifasini bajaradi.

Ey dil, agar yurt yodi kelsa, sabr qil,
Hijronda ham muhabbatni asra, dil.
Vatandan ayrilmoq jismga og'riqdur,
Ammo undan ham og'ir – yurtni unutmoqdur [4].

Juda chuqur va ma'naviy g'oya bilan sug'orilgan bu she'r mutafakkir falsafasidagi vatanparvarlikning ontologik va axloqiy mohiyatini yoritib beradi. Unda vatanga muhabbat nafaqat hissiy, balki falsafiy va irfoniy qiymat sifatida talqin etilgan.

"Ey dil, agar yurt yodi kelsa, sabr qil," — bu yerda "dil" insonning ma'naviy markazi, ya'ni ong va vijdon manbai sifatida talqin etiladi. Bobur falsafasida "yurt" tushunchasi jismoniy hududdan keng ma'noga ega bo'lib, u inson borlig'ining manbai, ma'naviy ildizi va ontologik vujudning bir qismi hisoblanadi. Sabr esa, faqat toqat emas, balki borliqni anglash yo'lidagi irodaviy tetiklikdir. Demak, Boburning ushbu satrdagi murojaati insonning vatan sog'inchini sabr-qat'iyat orqali ma'naviy o'sish va ma'rifat bosqichiga ko'tarishga qaratilgan. Bunda falsafiy mazmun shundan iboratki, Vatanni sog'inish — ruhning o'z ma'naviy ildizini izlash jarayonidir.

“Hijronda ham muhabbatni asra, dil” — bu yerda hijron (ayriliq) inson hayotidagi ruhiy sinov, ma’naviy murosa va botiniy chidamning ramzi sifatida talqin qilingan. Mutafakkir “asrash” so’zini ishlatish orqali muhabbatni axloqiy majburiyat sifatida ko’rsatadi. Muhabbat qalbning tuyg’usi bilan birga, insonning o’z yurti va xalqiga nisbatan ma’naviy mas’uliyatini namoyon etadi. U insonni jamiyatga bog’lab turuvchi sadoqat ramzi. Falsafiy nuqtai nazardan muhabbat inson vujudini ma’rifat bilan to’ldiruvchi ijodiy kuch hisoblanib, uni muhofaza etish insoniy qiyofani saqlashdir.

“Vatandan ayrilmoq jismga og’riqdur” satrida mutafakkir insonning jismoniy va ruhiy tabiati o’rtasidagi ziddiyatni ko’rsatadi. Bunda Vatandan ayrilish nafaqat siyosiy yoki jismoniy yo’qotish, balki ruhiy kamolotga zarar sifatida qabul qilinadi. Mazkur fikr Abu Homid G’azzoliy va Abdurahmon Jomiyning irfoniy ta’limoti, ya’ni insonning haqiqiy borlig’i moddiy jismda emas, balki ilohiy manbada mujassam degan fikrlariga hamohangdir. Shuning uchun odam dunyoviy hayotda ayrilqni his qiladi, chunki ruhining asl maskani uni yaratgan Ilohiy haqiqatdir. Insonning ma’naviy kamolotga intilishi ruhning o’z vataniga qaytish yo’lidir. Ushbu fikrlardan xulosa shuki, insonning yurt bilan bog’lanishi uning borliq manbasiga bog’lanishidir.

“Ammo undan ham og’ir – yurti unutmoqdur” — bu satrda Bobur falsafasi yuksaklikka erishadi. Unga ko’ra, jismoniy ayrilish og’riq bersa ham, ma’naviy ayrilish halokatdir. Yurti unutmoq o’zlikni yo’qotish, vijdon va xotirani o’chirishdir. Mazkur fikrda ekzistensial axloqning asosi mujassam, ya’ni insonning ma’naviy hayoti xotira bilan, xotira esa, vatan bilan bog’liqdir.

Bobur falsafasida Vatanga muhabbat hissi shunchaki ehtiros emas, balki insonning axloqiy burchi va vijdon pokligi bilan chambarchas bog’liq. «Kimki yurtini sevmas, uning qalbida rahm yo’q. Kimki xalqqa rahm qilmas, unda insoniylik yo’q» [6]. Bunda Mirzo Bobur vatanparvarlikni insonning axloqiy mohiyati bilan o’zaro bog’laydi, ya’ni yurti sevisht vijdonning ifodasi bo’lsa, xalqqa rahm qilish insoniylikning belgisi sifatida izohlanadi.

Bobur o’z falsafiy qarashlarida davlatni faqat siyosiy tuzilma sifatida emas, balki axloqiy jamoa, ya’ni ma’naviy vatan sifatida talqin qiladi. Shuning uchun u adolatsiz hukmdorni “vatanga xiyonat qiluvchi” zolim sifatida izohlaydi. “Podshohga kerak ikki sifat: ilm va adolat, Biri yo’q bo’lsa, podshohlikka xiyonat”.

Mazkur fikrdagi “xiyonat” so’zi siyosiy ma’noda emas, balki axloqiy-falsafiy ma’noda qo’llanilgan bo’lib, adolatsizlik davlatni yemiruvchi kuch, vatanni ma’naviy halokatga yetaklovchi holat sifatida talqin qilinadi. Vatanning barqarorligi siyosiy institutlarda emas, balki adolatli munosabatda namoyon bo’ladi. Bundan xulosa shuki, Zahiriddin Muhammad Bobur uchun adolat siyosiy vosita emas, balki vatanning ma’naviy quvvati va jamiyat ruhiyatining tartibidir. Ikkinchidan, Vatanni sevisht uning ahliga insof bilan munosabatda bo’lishlikdir. Uchinchidan, podshoh uchun adolat yurti asrash vositasi, xalq uchun esa, vatanni his etish mezonidir. Demak, Bobur falsafasida adolatli podshohlik va vatanparvarlik bir ma’naviy tuzilmaning ikki qirrasidir: biri ruhiy quvvat beradigan bo’lsa, ikkinchisi uni bevosita amalga oshiradi. Shunday qilib, Bobur falsafasida adolat Vatanning ma’naviy yuragi, vatanparvarlik esa, uning ritmi hisoblanadi. Bobur insonni tabiatan ijtimoiy mavjudot sifatida qabul qiladi. Bu bayt irfoniy-ma’naviy mazmunda bo’lsa-da, falsafiy jihatdan juda muhim hisoblanadi. Inson o’zligini faqat xalq, jamoa bilan muloqotda anglaydi.

Zahiriddin Muhammad Boburning vatanparvarlik falsafasi zamonaviy ma’naviy paradigmalarda ham o’z dolzarbligini saqlab qolgan. Mutafakkirning g’oyalari bugungi kunda “milliy o’zlik”, “ma’naviy barqarorlik”, “ijtimoiy birdamlik” tushunchalari bilan mushtaraklik

kasb etadi. Shu boisdan, Boburning vatanparvarlik haqidagi falsafasi nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki zamonaviy falsafiy va ma'naviy jarayonlarda amaliy qiymatga ham ega.

Ta'kidlash joizki, tadqiqot davomida shunday xulosa qilish mumkinki, "Boburnoma"dagi vatanparvarlik g'oyasi insonning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy mohiyatini belgilaydigan falsafiy konsepsiya hisoblanadi. Unda Vatan:

- ma'naviy ildiz sifatida – insonning ichki dunyosi bilan bog'lanadi;
- ijtimoiy burch sifatida – vijdon va adolat orqali amalga oshadi;
- falsafiy qiymat sifatida – insonning barqaror ruhiy o'zligini belgilaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur falsafasida vatanparvarlik g'oyalari faqat siyosiy yoki lirik hissiyot sifatida emas, balki insonning ontologik vujud va axloqiy o'zligining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning "Boburnoma"sida vatanga muhabbat insonning ma'naviy ildizlariga sadoqat va tarixiy xotirani asrash bilan bog'langan umumbashariy qadriyat sifatida talqin etiladi. Bobur uchun Vatan bu faqat tug'ilgan makon emas, ruhning manbai, insonning ma'naviy markazidir. Shuning uchun u Vatandan ayrilishni jismoniy azobdan ham og'ir ruhiy iztirob sifatida anglaydi. Bu holat "Farg'ona yurtidan ayrilgan kunlarimda dilda bir og'riq bo'lur edi" degan satrlarda o'z ifodasini topadi.

Xulosa. Mutafakkirning falsafiy qarashlarida Vatanni sevish — uning qiymatini anglashdan boshlanadi. Bu fikr axloqiy-falsafiy jihatdan "ma'naviy anglash orqali muhabbat" tamoyilini ifoda etadi. Demak, Bobur falsafasida vatanparvarlik insonning ruhiy kamolot bosqichidir, ya'ni yurti sevgan shaxs o'z ongini, o'z qadriyatini anglay oladi.

Boburning Vatanga bo'lgan muhabbati o'z zamon uchun ham falsafiy, ham mafkuraviy ahamiyat kasb etgan. U Vatanni nafaqat shaxsiy sog'inch, balki ijtimoiy birlik va ma'naviy quvvat manbai sifatida ko'radi. Bu jihatdan uning qarashlari Abu Homid G'azzoliyning "maxluqotga muhabbat — Xoliqqa muhabbatning ifodasidir" degan irfoniy g'oyalari bilan hamohangdir. Shu ma'noda Bobur falsafasidagi vatanparvarlik ijtimoiy ma'naviyatning falsafiy modelini tashkil qiladi. Unda muhabbat, sabr, xotira va o'zlik g'oyalari uyg'un bir tizimda ifoda topadi. Bu qarash nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy milliy ma'naviyatni anglashda ham metodologik ahamiyat kasb etadi.

Bobur falsafasidagi vatanparvarlik g'oyalari inson ongidagi "o'zlikni anglash" jarayonining ma'naviy-ontologik ifodasidir. Unda vatanni sevish nafaqat hissiy ehtiyoj, balki axloqiy burch va ruhiy kamolotning belgisidir. Shu jihatdan, Bobur falsafasi bugungi "Yangi O'zbekiston" ma'naviy siyosatining ilmiy ildizlaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Lal R. *Babur and His Times*. — New Delhi: Munshiram Manoharlal Publishers, 1980. — 312 p.
2. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – М.: Наука, 1965. – 346 с.
3. Бобур З.М. Бобурнома. — Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2017. — 544 б.
4. Бобур З.М. Ғазаллар девони. — Тошкент: Адабиёт, 2010. — Б. 61.
5. Бобур З.М. Девон. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 368 б.
6. Бобур энциклопедияси. — Тошкент : "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Нашриёти, 2014. — 688 б.
7. Бобур. Бобурнома: изоҳли луғат. Тузувчи: Қосимов Б. — Тошкент : Фан, 1989. — 356 б.

8. Жомий. Сабот ул-ожизин / нашрга тайёрл. И.Ҳаққул. – Тошкент: Адабиёт, 1999. – 228 б.
9. Комилов Н. Фаробий ва Шарқ фалсафаси. – Тошкент: Фан, 1996. – 215 б.
10. Навоий А. Ҳамса. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. — Т. 4. —Б.227.
11. Фаробий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент, 2007. -Б. 45

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).